

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA
TAYYORGARLIGINI TA'MINLASHDA IJTIMOY-EMOTSIONAL
RIVOJLANISHNING AHAMIYATI.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

*Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Meliboyeva Gulsanam Inomjon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy-emotsional rivojlanish tushunchasining mazmuni, uning psixologik-pedagogik ahamiyati hamda bola shaxsining har tomonlama kamol topishidagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga doir yetakchi pedagogik va psixologik nazariyalar, jumladan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlarning metodologik asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Metodologik, kompetensiya, empatiya, emotsiya, emotsional, baynalminalchilik, standart, ijtimoiy institut, maxsus mashg'ulot, axloqiy me'yor.

**ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В
ОБЕСПЕЧЕНИИ ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К
ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ**

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы формирования социально-эмоционального развития у детей дошкольного возраста. Раскрывается содержание понятия социально-эмоционального развития, его психолого-педагогическое значение, а также роль в всестороннем становлении личности ребёнка. Также освещаются ведущие педагогические и психологические теории, направленные на развитие социально-эмоциональных навыков, в том числе раскрываются методологические основы деятельностного и компетентностного подходов.

Ключевые слова: методологический, компетенция, эмпатия, эмоция, эмоциональный, интернационализм, стандарт, социальный институт, специальные занятия, нравственные нормы.

**THE IMPORTANCE OF SOCIAL AND EMOTIONAL DEVELOPMENT IN
ENSURING PRESCHOOL CHILDREN'S READINESS FOR SCHOOL EDUCATION.**

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations of forming social and emotional development in preschool-aged children. It reveals the content of the concept of social and emotional

development, its psychological and pedagogical significance, as well as its role in the comprehensive development of a child's personality. The article also highlights leading pedagogical and psychological theories aimed at developing social and emotional skills, including the methodological foundations of activity-based and competency-based approaches.

Keywords: methodological, competence, empathy, emotion, emotional, internationalism, standard, social institution, special activities, moral norms.

KIRISH

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish- bu bolaning emotsiyalarni anglash, ularni ifodalash va boshqarish, ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish hamda axloqiy me'yorlarga amal qilish jarayonidir. Psixolog olimlar bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini shaxs shakllanishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaganlar.

L. S. Vygotskiy nazriyasiga ko'ra , bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, emotsional tajriba bolaning bilish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Erikson esa maktabgacha yosh davrini tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikning shakllanishi bosqichi sifatida ta'riflaydi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishning quyidagi metodologik yondashuvlari o'rganilgan:

➤ Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Ushbu yondashuv bolaning individual psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olishga asoslanadi. Tarbiyachi har bir bolaning emotsional holatini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etadi.

➤ Faoliyatga asoslangan yondashuv

Faoliyat orqali o'rganish bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'yin, ro'lli mashg'ulotlar va jamoaviy faoliyatlar bolalarda hamkorlik, empatiya va o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

➤ Kompetensiyaviy yondashuv

Mazkur yondashuv bolalarda hayotiy zarur bo'lgan ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv zamonaviy maktabgacha ta'lim standartlarining asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishning yetarli darajada shakllanishi ularning maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlaydi.

Aynan emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv bolalarning keyingi o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bolaning ijtimoiylashuvi juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi.

Har qanday jamiyatda har bir bola shu jamiyat ma'lum ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimiga, me'yor va qoidalariga ega bo'lishi shu jamiyatda yashash uchun teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak.

Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi.

Bu yoshda bolalar yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy berish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish.

Shuningdek, kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va olijanob fazilatlaridan biridir.

Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash.

Vatanga muhabbat eng chuqur ijtimoiy-emotsional his-tuyg'ulardan biridir.

Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketgan.

Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi.

Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissi ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalanadi.

Baynalminal tarbiya.

Bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalminaldir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalminalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi.

Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammallashib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalminalchilik his-tuyg'ulari asosini shakllantirishda turli millat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish; maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlarini, madaniyati, san'ati, tabiati to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, filmlar namoyish etish, millat bolalari hayoti to'g'risidagi hikoyalarni o'qib berish foydali bo'ladi.

Demak, bolada ijtimoiy emotsiyalar to'g'ri shakllantirilsa, u o'zining emotsiyalarini anglashi, ularni ifodalash va boshqarishi orqali ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish hamda axloqiy me'yorlarga amal qilishni o'rgangan holda kamolga yetishidir.

Tarbiyachi har bir bolaning emotsional holatini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkillasa bolani maktab ta'limiga tayyorgarlik jarayoni takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilk Z Qadam Davlat o'quv dasturi takomillashgan ikkinchi nashr. 2022.
2. M. N. Xushnazorova Ijtimoiy pedagogika darslik. Toshkent 2025.
3. Z. R. Qodirova. Maktabgacha pedagogika darslik. Toshkent 2019.
4. M. Q. Jabborova "Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha davr va ijtimoiy hayot qonun-qoidalarining ahamiyati." "Xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy madaniy hayotidagi faolligini oshirishning gender omillari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Farg'ona – 2025.
5. M.Q Jabborova "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy rivojlanishi" "Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalar va xalqaro baholash tajribasi: muammo, yechimlar va istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Qo'qon - 2025